



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



EMOTSIONAL NUTQDA LEKSIK BIRLIKLARNI ISHLATLISH STRUKTURASI.

A'zamova Gulasal Sodiq qizi

*Farg'ona davlat universiteti chet tillari kafedrasi v.b.dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
gulasalazamova91@gmail.com
ORCID ID 0000-0002-6852-5087*

Annotatsiya: Mazkur maqolada emotsional komponentning mayjudligi yoki yo'qligi nuqtai nazaridan leksik birliklarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkinligi haqida so'z yuritadi: Masalan: salbiy, neytral va ijobjiy. Aksariyat hollarda leksik birliklarning pragmatik ma'no turlari o'rtaqidagi yaqin munosabatni kuzatishimiz mumkinligi tahlil qilingan

Kalit so'zlar: kognitiv, emotsiya, leksik, tushuncha, nutq, salbiy, neytral, stilistik, his, pragmatik, kommunikativ, assosiativ, model, diskursiv.

Emotsional komponentning mavjudligi yoki yo'qligi nuqtai nazaridan leksik birliklarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: salbiy, neytral va ijobjiy. Aksariyat hollarda leksik birliklarning pragmatik ma'no turlari o'rtaqidagi yaqin munosabatni kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, kundalik-so'zlashuv janrida ishlatilishi mumkin ma'lum bir so'z, moslashuvchan bo'lib ijobjiy yoki salbiy emotiv ma'no kasb etishi mumkin.

Tilshunoslar pragmatik ma'nolarning bu uch turi bilan bir qatorda so'zlovchining ayniqsa, tinglovchining gapda bildirilgan ma'lumotlarga nisbatan turli darajada xabardorligi tufayli gap strukturasidagi til elementlarining to'rtinchchi turi – "kommunikativ yuklamasi"ni ham ajratib ko'rsatadilar". Har bir jumlada so'zlovchi va tinglovchi gap tarkibida ma'lum o'ringa ega bo'lgan mavjud yoki yangi (mavzu va rema)ni ongli ravishda ajratib olishadi.

Pragmatik ma'no kommunikativ vaziyat ishtirokchilarining shu vaziyatga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Bunday vaziyatlarda tarjimonning gapning "kommunikativ bo'linmasi"ni to'g'ri yetkazishi g'oyat muhimdir, chunki bu tarjimaning ekvivalentligini belgilaydi.

Demak, pragmatik ma'nolarning turli tillardagi nomuvofiqligi ko'pincha ma'noning bir qismi yo'qolib ketishiga olib keladi, odatda bunga tarjimonning leksik birliklarni stilistik va hissiy jihatdan neytral so'zlar bilan almashtirishga qaror qilishi sabab bo'ladi. Biroq, agar neytrallash keng tarqalgan bo'lsa va ma'lum darajada muqarrar bo'lsa, unda stilistik jihatdan neytral so'z pragmatik jihatdan belgilangan so'z bilan almashtiriladi va tarjimon kompensatsion yoki tavsiflovchi tarjimadan tashqari barcha holatlarda qabul qilinishi mumkin emas. Kompetensiya natijasida tarjimada pragmatik ma'nolar boshqa vositalar va matnning boshqa o'rinalarida ifodalanishi mumkin. So'zning emotsional-baholovchi mazmunini yetkazishga kelsak, birinchi navbatda, u butun jumlani qamrab oladimi yoki





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ma'lum bir so'z doirasidan tashqariga chiqmaydimi shuni aniqlash lozim. Birinchi holda, emotsiyal-baholovchi mazmunini umumiylashtish mumkin, ikkinchisida esa emotsiyal komponentni leksik birlikda saqlash shartdir. Hissiy komponentni uzatish manba tilidagi so'zlarning assosiativ xususiyatlari va tarjima tili bir-biriga mos kelganda eng oson amalgalashiriladi, agar bu komponentlar birbiriga mos kelmasa, qiyinroq bo'ladi. Manba tilida ijobjiy ma'noga ega bo'lgan so'z esa tarjima tilida salbiy qabul qilinadi. Bu holda olingan so'z ma'nosining ko'chishi kommunikativ adekvatlikni saqlagan holda leksik yo'qotishlardan o'tishi mumkin. Demak, his-tuyg'ularning mohiyatini, inson hayotidagi rolini tushunish, ushbu hissiyotlarini ifodalashi uchun maxsus leksika qatlami o'rghanish muhim ahamiyatga ega.

Emotsional nutq inson muloqotining eng murakkab va ko'p qirrali shakllaridan biridir. Bunday nutq nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki shaxsiy his-tuyg'ular, kayfiyat, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvokognitiv model bu jarayonni yanada chuqurroq anglashga yordam beradigan ilmiy asosdir. Mazkur model yordamida nutq jarayonida yuzaga keladigan emotsiyal ko'rinishlarning leksik, sintaktik, fonetik va kontekstual jihatlari tahlil qilinadi va ular orqali inson miyasida kechadigan kognitiv jarayonlar o'rGANILADI.

Emotsional nutqni lingvokognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish, nutqiy hodisalarini ko'p jihatlama o'rGANISHGA imkon beradi. Bunda asosiy e'tibor emotsiyalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning tanlovi, ularning kognitiv jarayonlardagi shakllanishi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning qanday shakllanishiga qaratiladi. Ushbu model nafaqat leksik va sintaktik darajalarni, balki nutqning kontekstual omillari, situatsion va madaniy sharoitlarning hissiy nutqqa ta'sirini ham o'rGANISHNI ko'zda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, lingvokognitiv modelni tadqiq qilishning ahamiyati yanada ortadi. U inson nutqiy faoliyatida emotsiyalarni qanday shakllantirishi, uzatishi va qabul qilinishini ko'rsatadi. Ushbu model asosida emotsiyal nutqning leksik-strategik, sintaktik-kompozitsion, fonetik-prosodik, pragmatik va diskursiv omillari chuqur tahlil qilinadi. Bu tahlil nutqiy hodisalarning chuqurroq semantik mazmunini ochib berishga va emotsiyalarni ifodalashning universal hamda madaniyatga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa: Emotsional nutqni lingvokognitiv yondashuv asosida tadqiq qilish inson miyasidagi til va emotsiyal o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishga, shuningdek, lingvistik vositalar va emotsiyalarning kognitiv jarayondagi o'rni va ahamiyatini kashf qilishga imkon beradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. London: Edward Arnold.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Damasio, A. (1999). *The Feeling of What Happens: Body and Emotion in the Making of Consciousness*. New York: Harcourt Brace.
4. Scherer, K. R., & Wallbott, H. G. (1994). Evidence for Universality and Cultural Variation of Differential Emotion Response Patterning. *Journal of Personality and Social Psychology*, 66(2), 310–328.
5. Pavlenko, A. (2005). *Emotions and Multilingualism*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. [Azamova G.S., Khojaliyev I.T. The concept of equivalence in translation and its interpretations. SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY 2022.](#)
7. A'zamova G. NATIONAL-CULTURAL NOTIONS AND THEIR COMBINATION IN ENGLISH AND UZBEK WORKS.
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1599/1492>
8. Hojaliyev, A'zamova G. [Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.](#)
9. A'zamova G. [SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF COGNITIVE CONCEPT IN LINGUISTICS.](#)
10. Г. Азамова. УЛУЧШЕНИЕ УСТНОЙ ПРАКТИКИ

